



QORAQALPOG‘ISTONDAGI TURKIY XALQLAR SHEVALARIDA FRAZELOGIZMLAR VA ULARNING ADABIY TILDAGI MUQOBILI

O‘razboyev Olimjon Rustam o‘g‘li

Berdaq nomidagi

**Qoraqalpoq davlat
universiteti magistranti**

Annotatsiya: Ushbu maqolada frazeologiya va adabiy tildagi frazeologizmlarning shakllanishi ayniqsa qoraqalpog‘istondagi turkiy xalqlar shevalarida frazeologizmlar va ularning adabiy tildagi muqobili haqida gap boradi.

Kalit so‘zlar: frazeologiya, frazema, dialekt, esichiqib ketmoq, bir tan-u bir jon bo‘lmoq, ibora .

Abstract: This article deals with phraseology and the formation of phraseologisms in the literary language, especially phraseology in the dialects of the Turkic peoples of Karakalpakstan and their alternative in the literary language.

Key words: phraseology, idiom, dialect, to become warm, to become one body and soul, phrase.

Аннотация: В данной статье рассматривается фразеология и образование фразеологизмов в литературном языке, особенности фразеологии в диалектах тюркских народов Каракалпакстана и их альтернативы в литературном языке.

Ключевые слова: фразеология, идиома, диалект, согреться, стать единым телом и душой, словосочетание.

Olamning lisoniy nazariyasi yoki insonning til shuurida so‘zlar bilan bir qatorda tarkibi jihatdan barqaror bo‘lgan va nutqda tayyor holda aks ettiriladigan



frazelogik birliklar yoki frazeologizmlar mavjud. Ular tilimizda soʻzlarning taʼsirchanligini ifodalashdagi oʻrni katta. Sababi ayrim gaplar bir soʻz bilan, ayrimlari bir necha soʻzdan tashkil topib bir maʼnoni anglatadi¹. Frazelogizmlar stilistikasiga koʻra gapda faol ishtirok etadi. Shuning uchun badiiy asarlarda ifoda kuchini kengaytirish maqsadida unumli foydalaniladi. Ularning yana bir xususiyati aniqlik boʻlib, u gapning qisqa va mazmunli boʻlishda muhim oʻrin tutadi². Masalan: “esichiqib ketmoq” frazemasini olaylik. Roʻparasida toʻsatdan paydo boʻlgan ilonni koʻrib esi chiqib ketdi” iborasi oʻrniga “qoʻrqmoq” soʻzini qoʻllash gap maʼnosining toʻla – toʻkis ifodalanishiga toʻsquinlik qiladi. Ayna “esi chiqib ketmoq” iborasining qoʻllanilishi gapning aniqlik xususiyatini oshiradi.

Bugungi kunda oʻzbek tilshunosligining sheva frazeologiya sohasini oʻrganish, frazeologizmlarning shakllanish masalalari tadqiq qilish, ularning semantikasi tahlil qilish ahamiyatga ega boʻlgan masalalardandir. Bu masalalar albatta oʻz tadqiqotchilarini kutib turganidan dalolat beradi. Shunday boʻlsa ham dialektal frazeologizmlar boʻyicha Sh.Rahmatullayev, M.Turapiva va A.R.Rafiyevlarning tadqiqotlarida Toshkent shevalariga doir frazeologizmlar, X.Qaxxarova va B.Yoʻldoshevning ishlarida Samarqand shevalariga oid frazeologizmlar hamda X.Doniyorovning ishlarida esa Jizzax va Sirdaryo viloyatlari shevalariga mansub frazeologizmlar xususida faktik materiallar asosida toʻxtalib oʻtilgan. Bu tadqiqotlarda Qoraqalpogʻiston shevalariga xos frazeologizmlar haqida hech qanday maʼlumotlar keltirilmaydi. Biz ushbu ishimizda Qoraqalpogʻistondagi turkiy xalqlar tillaridagi dialektal frazeologizmlarning ayrimlari haqida maʼlumot berib oʻtamiz. Bilamizki yurtimizda har turli millat vakillari bir-biri bilan ahil va inoq yashamoqdalar. Shu jihatlarni hisobga olgan holda Qoraqalpogʻistondagi oʻGʻuz lahjasida qoʻllaniladigan ayrim frazeologizmlarning qipchoq lahjalar vakillari tillarida, yaʼni

¹Mamatov E.A. Zamonaviy lingvistika. T.2019. B:113

² Til va adabiyot taʼlimi jurnali. “Xitoy va oʻzbek tili frazeologizmlarining stilistik funksiyalari. 2019-yil 9-son. 37-bet.



qoraqalpoq, qozoq dialektidagi qiyosini ko'rishimiz mumkin. Shevamizdagi frazeologizmlarning qoraqalpoq va turkman shevalaridagi qiyosi o'xshash va farqli jihatlarini shuningdek, ularning adabiy tildagi variantlarini qiyosladi. U yoki bu tilning frazeologik birliklari insoniy munosabatlarining ko'z ilg'amas rang-barangligini aks ettiradi. Ularda ham baxt, sevgi, ajablanish, iroda kuchi qiziqish, chaqqonlik, sergaplik kabi juda ko'p tushunchalarni tavsif va tasvirlari mavjud. So'zlar orasida sinonimik qator bo'lgani kabi bu holat frazeologizmlarda ham kuzatiladi. Ota-onalar farzandlariga ahil bo'linglar deb ko'p aytishadi. Adabiy tilimizda ahil, yakdil, hamjihat bo'lishga chorlaydigan iboralar juda ko'p. Jumladan "bir yoqadan bosh chiqarmoq", "bir tan-u bir jon bo'lmoq" variantlarini uchratamiz³. Masalan: "Bechoraning hech kimi yo'q; yetim edi. Ikki g'arib bir yoqadan bosh chiqargan edik"⁴. Ushbu iboraning shevalarimizdagi shakliga nazar tashlaydigan bo'lsak, qirchoqlarda "быр жагадан бас шығарыу" yoki "бир жеңнен бас шығарыу" shaklida. Kegeyli tumani tilida qo'llaniladi⁵. To'rtkul tumani o'g'uz lahjasi bo'lsa "agzi biyr", "birlesmek", "jeblesmek" kabi variantlarining qo'llanishining guvohi bo'ldik. "Tipog' bo'lmoq" iborasi Qashqadaryo viloyati Kasbi tumani aholisi vakillari tilida qo'llaniladi. Bu iboraning qozoq tilidagi varianti "бир жеңнен қол, бір жагадан бас шығарды", "бір жагадан бас, бір жеңнен қол шығарды", "бир жагадан бас шығарыу" tarzda qo'llaniladi⁶.

Shuningdek, holi joniga qo'ymaslik, tinch qo'ymaslik ma'nosida adabiy tilimizda "osmonga chiqsa, oyog'idan, yerga kirsang, qulog'idan tortmoq" iborasini qo'llaymiz. Bu iboraning "osmonga uchsang oyog'ingdan yerga kirsang qulog'ingdan tortmoq" variant ham mavjud. Masalan: "Qo'yadigan xotinim yo'q,-

³.Рахматуллаев. Ш Узбек тилининг изоҳли фразеологик лугати Тошкент 1978 43 - 6

⁴.Ойбек. Қутлуғ кон, Тошкент. 1969. 27-6

⁵. Қайпназарова М. Кегейли сойлесиминдеги диялекттик фразеологизмлер. Қарақалпақ тили фразеологиясиниң актуәл маселелери. Ншқис. Қарақалпағистан. 2011. 38-6

⁶. Ешимбаев М. Асқаров. А. Қазақ тилиниң фразеологик сөзлиги. Алматы. 2007. Б: 76.



mushtini siqib dedi Boqijon. – Osmonga uchsang oyog‘ingdan, yerga kirsang – qulog‘ingdan tortaman, bilib qo‘y”⁷. Ushbu frazeologik birlikning Ellikqa’la tuman sheva vakillari tilida “asmana çiksa ayakinan yera girsa quloqinnan tortish” *"itiñ işi diyvana bilen seniñ işi shö bilen"* yoki *"asmana çiqsa ayaginan yere girsa quloginan tartu"* shaklida, qozoq tilda *"аспанға шықса айағынан, жерге кирсе қулағынан тарту"*, *"аспанға ұшса айағынан тартады, жерге кирсе, желкесинен тартады"*⁸ kabi shakllari, qipchoq lahjasi vakillari tilida bo‘lsa *"аспанға шикса аяғынан, жерге кирсе шашынан тартыу"*⁹, yoki *"аспанға ушса сыйрағынан, жерге кирсе айдарынан тартыу"* shaklida qo‘llaniladi.

Inson ijobiy fazilatlarga ega bo‘lgani kabi uning salbiy fazilatlari ham anchagina. Bir insonning aybini aytish, yomon niyat bilan deyarli aybi yo‘q kishining faoliyatiga ayb topishga harakat qiluvchilar oramizda talaygina. Jumladan adabiy tilda bu singari insonlarga nisbatan *"tirnoq orasidan kir qidirmoq"* iborasini qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Bu frazaning tilimizda bir qancha variantlari mavjud. *"Tirnoq orasidan kir qidirmoq"*, *"tirnoq ostidan kir izlamoq"*, *"tirnoq tagidan kir qidirmoq"*, *"tirnog‘idan kir izlamoq"*¹⁰ kabi. Masalan: *Oybekning "Oltin vodiydан shabadalar" asarida: "Sizga o‘xshab ig‘vogar bo‘lsam, tirnoq orasidan kir kovlasam, shivirlar edim. ... Siz mana bu gapni qulog‘ingizga quyib oling: gap tashuvchi, tirnoqdan kir izlovchilarni, chaqimchilarni men juda yomon ko‘raman" jumllalarni keltirishimiz mumkin*¹¹. Shevamizga nazar tashlasak *"qildan qiyiq qidirmoq"*, *"pashshadan fil yasash"* kabi turlari qo‘llaniladi. Qipchoq lahjasi vakillari tilida *"тирнақтиң астынан кир изле"* shakli qardosh qozoq tilida bo‘lsa *"тырнақ астынан кір іздеду"*¹² tarzida mavjud. Bu iboraning o‘g‘uz lahjasi aholi

⁷. Ойбек. Олтин водийдан шабадалар. Б:195

⁸Ешимбаев М. Асқаров. А. Қазақ тилинің фразеологик сөзлиги. Алматы. 2007. Б:32.

⁹ Қайпназарова М. Кегейли сойлесиминдеги диялектик фразеологизмлер. Қарақалпақ тили фразеологиясиниң актуәл маселелери. Нокис. Қарақалпағистан. 2011. Б:74.

¹⁰.Рахматуллаев. Ш Узбек тилиннг изохли фразеологик лугати Тошкент 1978 Б: 233.

¹¹. Ойбек. Олтин водийдан шабадалар. Т. Б:2332

¹².Ешимбаев М. Асқаров. А. Қазақ тилинің фразеологик сөзлиги. Алматы. 2007. Б:291.



vakillari tilida ham bir necha sinonimlari mavjud. Bular "süýde siňa gözzeseň gan göriner", yoki "namani izarlasañ monjiq tapilar" "dirnaq astinan kir izlash" kabilardir. Turkman adabiy tilida bo'lsa "süýde siňe seretseň gan göriner" shaklida qo'llaniladi¹³. Shaklan har xil bo'lgan bu frazeologizmlar ma'no jihatdan bir-biriga juda yaqindir.

Xalqimizda tez hafa bo'lib qoladigan tanqidga chidamaydigan odamlarni ko'p uchratamiz. Bunday insonlarga gapirganimizda bir gapimiz ko'p bir gapimiz ozdir. O'G'uz lahjasida bundaylarga nisbatansirkasi suv go'tarmaye iborasini qo'llaydilar. O'zbek adabiy tilida bo'lsa sirkasi suv ko'tarmaydi, sirkasi suv ko'tarmas, sirkasi suv ko'tarmaydigan variantlarini ko'rishimiz mumkin.

Gich yaktilik – bu ibora xayrli kech degan ma'noni anglatadi. Buning turkman adabiy tilida *gic yagsy* shakli mavjud. Masalan: *giç yaxshi!- diyp gelen adam onuñ rahadyny bozdy*¹⁴. Ellikqal'a qipchoq lahjasi vakillari tilida *kesh jaqtiliq, kech yaqtiliq, kesh jariq* shakllari, Amudaryo qorluq lahjasi vakillari tilida *kech jaqtiliq* shakli mavjud.

Gözden duşmek – masxara bo'lmoq degan ma'noni bildirib, uning yana shevada bir yerda tura olmaydigan bolalarga nisbatan ishlatiladi. Bu iborani o'zbek adabiy tilida "yerga ursa ko'kka sapchimoq" shakli bor. Bu frazani Xorazm viloyatida *yeara ursa osmona sapchiydi* degan shakli mavjud va hech qachon hafa bo'lmaydigan, sho'x odamlarga, serG'ayrat odamlarga nisbatan ishlatiladi.

Gulag asmak yoki gulag salmak – tinglamaslik, gapiga kirmaslik degan ma'noni anglatadi. O'zbek tilimizda bu ibora *quloq solmoq* shakliga to'G'ri keladi. Bu iborani qoraqalpoq shevasida "қулақ асыу" shakli va qoraqalpoq adabiy tili nazar tashlasak "қулақ салыу" variantini mavjudligini guvohi bo'lamiz. Masalan: "Aqdarya" romanida bu ikki shaklning ham keltirilganini guvohi bo'ldik.

¹³. Хожаниязов Сапар. Арьулар. Нөкис. Қарақалпағистан. 1987. Б: 162.

¹⁴. Turkmen dilining frazeologik so'zligi. Askabat 2013. Б:72.



*Халайыклар, тиңлаңизлар, тиңлаңизлар, Калийлаңиң сөзине қулақ салиңизлар! Тилемис оның гапине қулақ асқан жоқ*¹⁵.

Janina degdi - ushbu frazeologizm turkman tili shevasida kuni bilan ishlab charchagan odamga nisbatan ishlatiladi. Shuningdek, bo'lar - bo'lmasga biron kishiga turli xildagi mavzularda ko'p gapiraveradiganlarga ham qo'llaniladi. Qoraqalpoqlarda janG'a tiydi bo'lsa, qorluq lahjasi vakillari tilida *jonina deydi* shakli mavjud. Bu frazani Xorazm viloyatida *ham jonina deydi* variant mavjud.

Janyñdan doymak - tarki dunyo qilmoq. Bu frazaning "*jonimnan doydirdi*" shakli ham bor. O'zbek adabiy tilida aynan shunday varianti mavjud bo'lmasa ham shunga yaqinlari ko'zga tashlanadi. Aniqrog'i, ushbu frazeologizmning *ko'p ezmaladi* yoki bo'lmasa *oshirib yubordi* variantlari mavjuddir. Professor Sh.Rahmatullayev tomonidan tuzilgan "O'zbek tili frazeologizmlarining lug'ati" nomli lug'atda ushbu fraza mavjud emas¹⁶.

Bar bol - bu kimningdir biron ish qilayotgan paytida "xormang" so'ziga javob tariqasida aytganidir. Qoraqalpog'istondagi qipchoq, o'g'uz lahja vakillari tillarida ham shu tariqa ishlatiladi. Qorluq lahjasi asosan "xormang" so'ziga javob tariqasida "*salomat bo'ling*" iborasini qo'llaydi.

Başa gelenini görmek (çekmek) - taqdirda borini ko'rish¹⁷. Bu frazaning Ellikqa'la turkmanlari tilida "*başa düşeni göz görer*" shakli, qoraqalpoqlarda bo'lsa, "*басқа түскенде көз көрер*", o'zbek adabiy tilida "*boshga tushganni ko'z ko'rar*" kabilarni aytib o'tishimiz mumkin. Bularni misol tariqasida keltirar ekanmiz asosan bir- biridan tovushlar orqali farqlanadilar.

"*Пишик мурни батпастай*" – o'tib bo'lmaydigan yer. Qalin o'rmonga nisbatan qo'llaniladi. Asosan bu ibora qoraqalpoq adabiy tilida qo'llaniladi¹⁸.

¹⁵. Султан.К. Ақдаря романи. Н. Б: 109-122.

¹⁶ Sadoqat Azimova Allanazarova. Xorazm shevasi va ingliz tilidagi frazeologizmlarning semantikxususiyatlariga doir mulohazalar. 2022. B: 5.

¹⁷. Turkmen dilining frazeologik so'zligi. Askabat 2013. B: 18.

¹⁸. Қирқ киз. Н Б:108



“*журеги бос*” – bu iborada qiyinchilikka duch kelsa chiday olaydigan va ko‘ngli bo‘sh odamga nisbatan aytiladi. Adabiy tilimizda “ko‘ngli bo‘sh” “yuragi bo‘sh” kabi shakllari bor. Turkman tilida “*çidamsiz*”, “*gøngli bosh*” shaklida qo‘llaniladi.

“*Iyt muti*” bu ibora asosan savdo - sotiqqa bog‘liq bo‘lib, judayam arzon degan manoni anglatadi.

“*Ko‘zingdi may baylap*” – bu iborada ko‘rmaganlikka olish ya’ni oldidagi narsaga qarab tursa ham ko‘rmasligi ma’nosida qo‘llaniladi. Amudaryo tumani aholisi tilida odam tanimaslik, pisand qilmaslik ma’nosida qo‘llaniladi.

“*Ko‘ziga tuproq urib*” – bu ibora aldash ma’nosida qo‘llaniladi. Ko‘rib bilib tursa ham yolg‘on gapirib aldashga harakat qiladigan odamlarga nisbatan qo‘llaniladi. Buxora viloyati aholisi vakillari tilida ham qo‘llaniladi. Bu shevada “*suvsiz olib barib gelish*” iborasining ma’nosiga yaqindir.

Mazkur frazeologizmlarning aksariyat qismi Qoraqalpog‘istonning ko‘plab hududlarida qo‘llaniladi. Asosan o‘g‘uz lahjasidagilari Ellikqala va To‘rtko‘l tumani aholisi tilida keng qo‘llaniladi. Bunday frazalarni misol tariqasida yana ko‘plab keltirishimiz mumkin. Chunki so‘nggi yillarda bu sohaning turli sathlari keng qamrovda o‘rganilmoqda. Ushbu maqolamizda ayrim frazalarning kundalik hayotda qo‘llanilishi, uning boshqa turkiy tillardagi qiyosini o‘rganishga harakat qildik. Mavzu jihatidan har xil turdagi bu iboralar bir- biridan tovushlar orqali farqlanishini, bir tilda bir necha shakllari mavjudligini kuzatdik.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Раҳматуллаев. Ш . Ўзбек фразеологиэсининг баъзи масалалари Фил .фан док ...диссер. -Т. Б :362.
2. Поливанов Е.Д. Введение в языкознание для востоковедных вузов. –Л., 1928. –Б:60-61.



3. Раҳматуллаев.Ш. Ҳозирги замон ўзбек тилидаги образли феъл фразеологик бирликларнинг асосий грамматик хусусиятлари. Филол.фанлари номз...диссер. -М. 1952.Б: 55.

4. Турсунов. У.Т. Состояние и задачи изучения фразеологии узбекского языка. Вопросы фразеологии. Труды СамГУ, выпуск 106, -Самарканд, 1961. Б:106.

5. Турсунов У .Мухтаров Ж Раҳматуллаев. Ш Ҳозирги ўзбек адабий тили. -Т., Ўқитувчи 1975. Б:45.